ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNII	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILII-IQTISODIIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	1723
Umurzakova D. E.	



TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Umurzakova D. E.

“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,
mustaqil tadqiqotchi

E-mail: ferdu_www@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'siqsiz turizm tushunchasining nazariy asoslari, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda zamonaviy turizm tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida to'siqsiz turizmning asosiy xususiyatlari, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda O'zbekiston sharoitida mavjud muammolar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida to'siqsiz turizmni rivojlantirishning ustuvor omillari belgilab berilgan. Xorijiy va mahalliy olimlar adabiyotlarining tahlili tadqiqotning ilmiy asoslanganligini yanada oshirgan. Olingan natijalar to'siqsiz turizmni rivojlantirish orqali ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirish hamda turizm xizmatlari sifatini oshirish imkoniyatlarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: to'siqsiz turizm, turist, xizmatlar sohasi, infratuzilma, transport xizmatlari, malakali kadrlar, maxsus ehtiyojlar, turizm xizmatlari, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article scientifically explores the theoretical foundations of the concept of barrier-free tourism, its socio-economic significance, and its role in the modern tourism system. The study analyzes the main features of barrier-free tourism, the factors influencing its development, as well as the existing challenges in the context of Uzbekistan. In addition, priority factors for the development of barrier-free tourism are identified in order to address these challenges effectively. The analysis of the literature by foreign and domestic scholars has enhanced the scientific validity of the research. The obtained results substantiate the potential for strengthening social inclusion and improving the quality of tourism services through the development of barrier-free tourism.

Key words: barrier-free tourism, tourist, service sector, infrastructure, transport services, qualified personnel, special needs, tourism services, sustainable development.

Аннотация. В данной статье научно раскрыты теоретические основы понятия безбарьерного туризма, его социально-экономическое значение и роль в современной туристической системе. В ходе исследования проанализированы основные особенности безбарьерного туризма, факторы, влияющие на его развитие, а также существующие в условиях Узбекистана проблемы. Кроме того, с целью их эффективного устранения определены приоритетные факторы развития безбарьерного туризма. Анализ трудов зарубежных и отечественных ученых способствовал повышению научной обоснованности исследования. Полученные результаты подтверждают возможности усиления социальной инклюзии и повышения качества туристических услуг за счёт развития безбарьерного туризма.

Ключевые слова: безбарьерный туризм, турист, сфера услуг, инфраструктура, транспортные услуги, квалифицированные кадры, особые потребности, туристические услуги, устойчивое развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatda ijtimoiy tenglik va inklyuziyani mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar hamda bolali oilalar uchun turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, to'siqsiz turizm konsepsiyasi barcha insonlar uchun teng va qulay sayohat muhitini yaratishga qaratilgan muhim yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish orqali to'siqsiz turizm infratuzilmasini shakllantirish, qonunchilik va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash hamda ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib



qolmoqda. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] qarorida respublikada turizm infratuzilmasidagi mavjud masalalarni hal etish, sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm infratuzilmasi hamda madaniy meros obyektlarida erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlovchi to'siqsiz turizm muhitini rivojlantirish ushbu sohadagi eng dolzarb ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlar ilmiy izlanishlarida turizmning iqtisodiyot, ijtimoiy soha hamda ekologik barqarorlikka ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nashr etgan "Barrier-free tourism for people with disabilities in the Asian and Pacific region" nomli tadqiqotda [2] Osiyo va Tinch okeani mintaqasida to'siqsiz turizmning holati va rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil qilingan. Unda to'siqsiz turizm nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun sayohat, sport hamda dam olishga mo'ljallangan mahsulot va xizmatlar majmui sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari to'siqsiz turizm nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslar, balki jamiyatning boshqa qatlamlari, ayniqsa, keksa fuqarolar uchun ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishini ko'rsatib, ushbu yo'nalishni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

R. Bianchi tomonidan yozilgan "Tourism globalization and challenges: analyzing risk and security policies in global travel" nomli maqolada [3] xalqaro turizmning xavfsizlik jihatlari va ularni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif globallashtirish sharoitida terrorizm va harbiy mojarolar kabi omillar turizm barqarorligiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, erkin harakatlanish hamda sayohat qilish imkoniyatlarini ta'minlash masalalarini xavfsizlik siyosati bilan uyg'un holda ko'rib chiqadi. Shuningdek, u bozor munosabatlarining mustahkamlanishi va iste'molchilik tamoyillari zamonaviy turist mobilligini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ilmiy asosda yoritadi.

Rossiyalik olim N. A. Logunova tomonidan yozilgan "Роль государства в развитии безбарьерного туризма" nomli ilmiy maqolada [4] to'siqsiz turizmni rivojlantirish zarurati hamda uning nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan. Muallif inklyuziv turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda va uni davlat hamda mintaqaviy darajalarda rejalashtirishda ikki muhim tamoyilga tayanish lozimligini ko'rsatadi: "universal dizayn" — obyektlarga to'sqinliksiz kirishni ta'minlovchi muhit yaratish hamda "oqilona moslashtirish" — hayot faoliyatidagi cheklovlardan qat'i nazar barcha fuqarolarga xizmatlar ko'rsatish imkonini beruvchi moslashuvchan muhitni shakllantirish. Tadqiqotda ushbu tamoyillar to'siqsiz turizmni davlat tomonidan tartibga solishda ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatib beruvchi muhim mezonlar sifatida e'tirof etiladi.

F. Altinay, Z. Altinay, M. Altinay va G. Dagli tomonidan yozilgan "Evaluation of the Barrier-Free Tourism and Sustainability of the Barrier-Free Society in Cyprus" nomli maqolada [5] nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm xizmatlari va hayotiy imkoniyatlarga kirish huquqlari, shuningdek, ushbu imkoniyatlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar atroflicha tahlil qilingan. Mualliflar mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yechimlarni asoslab berib, Shimoliy Kipr Turk Respublikasi misolida to'siqsiz turizm amaliyoti doirasida kirish va transport xizmatlaridan foydalanishga oid universal huquqlarni ilmiy nuqtai nazardan yoritib beradilar.

Z. O. Raximovning "O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati" nomli ilmiy maqolasida [6] turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni hamda unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar, omillar va turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlash masalalari hozirgi holatda ko'rib chiqilib, ularning soha rivojidagi muhim harakatlantiruvchi kuchlar ekani asoslab berilgan. Shuningdek, muallif to'siqsiz turizmni rivojlantirishda turizm obyektlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

D. E. Umurzakovanning "Theoretical Basis and Socio-Economic Significance of Barrier-Free Tourism Development" nomli maqolasida [7] muallif to'siqsiz turizm tushunchasining nazariy va metodologik asoslari hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritib beradi. Tadqiqotda ushbu sohadagi xalqaro va milliy tajribalar tahlil qilinib, universal dizayn tamoyillari asosida infratuzilma obyektlarini moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson resurslari salohiyatini oshirish hamda huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada to'siqsiz turizmning nazariy asoslari, olimlarning qarashlari, uning xususiyatlari, ijobiy jihatlari va rivojlanish imkoniyatlari hamda tizimda mavjud masalalar o'rganilib, "to'siqsiz turizm" toifasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Muallifning aniqlashicha, O'zbekistonda to'siqsiz turizmni rivojlantirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat [7]:



- infratuzilmani yanada moslashtirish zarurati;
- xizmatlar sifatini oshirish bilan bog'liq vazifalar;
- ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish ehtiyoji;
- iste'molchilar uchun to'siqsiz turizm paketlarining iqtisodiy qulayligini ta'minlash masalalari.

U. Yunusovning "Turizm sohasining aholi bandlik darajasini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati" nomli maqolasida [8] turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, tarmoqda aholi bandligi darajasi va uni oshirishning nazariy jihatlarini yoritilgan. Bundan tashqari, muallif tomonidan turizm sohasida bandlikni kengaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan bo'lib, ular sohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omil sifatida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, mantiqiy tahlil va sintez usullari yordamida to'siqsiz turizm tushunchasi hamda uning asosiy xususiyatlari nazariy jihatdan o'rganildi. Taqqoslama tahlil asosida xorijiy va milliy tajribalar solishtirilib, O'zbekiston sharoitidagi dolzarb masalalar aniqlab olindi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizm sohasidagi mavjud tendensiyalar baholandi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi.


Shuningdek, tizimli yondashuv asosida to'siqsiz turizmni rivojlantirish omillari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish orqali mavzuning huquqiy va institutsional jihatlarini tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada to'siqsiz turizm tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va zamonaviy turizm sanoatida tutgan o'rni atroflicha tahlil qilingan. To'siqsiz turizm nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslar, balki keksa yoshdagilar, bolali oilalar hamda maxsus ehtiyojga ega barcha kishilar uchun sayohat imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqolada to'siqsiz turizmni rivojlantirishning asosiy omillari, jahon tajribasi hamda O'zbekiston sharoitida ushbu sohani takomillashtirish istiqbollari yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turizm sanoatida inklyuziv yoki to'siqsiz turizm konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Nogironligi bo'lgan sayohatchilar (hamrohlari bilan birga) zarur shart-sharoitlar yaratilgan taqdirda ko'proq mablag' sarflash va uzoqroq muddat qolish tendensiyasiga ega bo'lib, salmoqli bozor segmentini tashkil etadi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston turizm sohasida to'siqsiz muhitni shakllantirish jarayonidagi mavjud masalalarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Bizningcha, to'siqsiz turizm jismoniy, hissiy, intellektual yoki boshqa maxsus ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning turizm xizmatlaridan to'liq va mustaqil foydalanishini ta'minlovchi samarali yondashuvdir. Ushbu konsepsiya "universal dizayn" tamoyiliga asoslanib, turli imkoniyatlarga ega barcha insonlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim masalalar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish to'siqsiz turizmni yanada rivojlantirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda to'siqsiz turizm bilan bog'liq muammolar [12].

O'zbekistonda to'siqsiz turizmni rivojlantirish jarayonida ustuvor e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan biri infratuzilmani takomillashtirish bilan bog'liq masalalardir. Aksariyat turistik obyektlar, tarixiy obidalar, mehmonxonalar hamda jamoat binolari nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga to'liq




moslashtirilmagan. Panduslar, liftlar, maxsus sanitariya xonalari va yo'nalish ko'rsatkichlarining yetarli darajada mavjud emasligi turistlarning erkin va xavfsiz harakatlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, mavjud infratuzilmani universal dizayn tamoyillari asosida bosqichma-bosqich moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, qonunchilikda to'siqsiz muhitni yaratishga doir me'yorlar belgilangan bo'lsa-da, ularning amaliyotda to'liq va samarali ijrosini ta'minlash zarurati mavjud. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan real holat o'rtasidagi ayrim tafovutlar nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda mas'ul subyektlar javobgarligini oshirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Bundan tashqari, transport tizimini yanada moslashtirish zarurati to'siqsiz turizm rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamoat transporti vositalarining aksariyatida maxsus moslamalarning yetishmasligi nogironligi bo'lgan shaxslarning shahar ichidagi va hududlararo harakatchanligini cheklab kelmoqda. Shu sababli, transport infratuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning inklyuziv xizmatlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda kadrlar salohiyatini rivojlantirish xizmatlar sifatini yaxshilash hamda turistlarning qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, to'siqsiz turizm sohasida ilmiy tadqiqotlar, tahliliy ishlanmalar va statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish zarurati mavjud bo'lib, bu holat mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kuchaytiradi (2-rasm).



2-rasm. To'siqsiz turizmning xususiyatlari [12]

To'siqsiz turizm bir qator muhim xususiyatlarga ega bo'lib, u turizm sohasining ijtimoiy yo'naltirilgan hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Avvalo, "...to'siqsiz turizm universallik tamoyiliga asoslanadi, ya'ni turizm infratuzilmasi va xizmatlari aholining barcha qatlamlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi" [9]. Ushbu yondashuv teng imkoniyatlarni yaratish, diskriminatsiyani kamaytirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, turizm xizmatlaridan foydalanishda jismoniy hamda kommunikativ cheklovlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, to'siqsiz turizm inson huquqlarini ta'minlashning amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, to'siqsiz turizm tizimli va kompleks xarakterga ega bo'lib, infratuzilma, transport, axborot muhiti hamda xizmat ko'rsatish madaniyatining o'zaro uyg'unligini talab etadi. Ushbu yo'nalish turizm xizmatlari sifatini oshirish, bozor imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. To'siqsiz turizmning yana bir muhim xususiyati uning innovatsion hamda ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanishidadir, chunki ushbu sohani rivojlantirish doimiy tahlil, monitoring va zamonaviy boshqaruv qarorlarini talab etadi. Natijada, to'siqsiz turizm nafaqat alohida ijtimoiy guruhlar uchun qulay sharoitlar yaratadi, balki butun turizm tizimining barqarorligini ta'minlovchi strategik omilga aylanadi (1-jadval).

1-jadval. Turistik maqsadlarda xorijga safar qilgan fuqarolar soni (ming kishi) [10]

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Turistik maqsadlarda xorijga safar qilgan fuqarolar soni	8594,8	8437,9	2001,5	2194,9	5163,2	4787,4	6183,8
Jumladan:							
Erkaklar	4209	4087,6	1085,2	1187,4	2707,7	2443,3	3087,8
Ayollar	4385,8	4350,3	916,3	1007,5	2455,4	2344,1	3096



Jadval ma'lumotlari O'zbekiston fuqarolarining 2018–2024-yillar davomida turistik maqsadlarda xorijga safar qilishi dinamikasini aks ettiradi. Umuman olganda, 2018–2019-yillarda xorijga chiqayotgan turistlar soni yuqori darajada bo'lib, mos ravishda 2018-yilda 8,6 mln kishi, 2019-yilda esa 8,4 mln kishini tashkil etgan.

2020-yilda ushbu ko'rsatkich 2,0 mln kishigacha keskin kamaygan bo'lib, bu holat global pandemiya sharoitida xalqaro harakatlanishning vaqtincha cheklanishi bilan izohlanadi. 2021-yildan boshlab tiklanish jarayoni boshlangan, 2022-yilda sezilarli o'sish qayd etilgan va 2024-yilda xorijga safar qilganlar soni 6,2 mln kishiga yetgan. Bu esa turistik faollikning izchil tiklanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkichlar hali pandemiyagacha bo'lgan darajaga to'liq yetmagan bo'lsa-da, ijobiy o'sish tendensiyasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Jinslar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha yillarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq katta emas, ya'ni xorijiy turizmga gender muvozanati nisbatan saqlanib qolgan. 2018–2019-yillarda erkaklar ulushi biroz ustun bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib erkaklar (3,09 mln kishi) va ayollar (3,10 mln kishi) ko'rsatkichlari deyarli tenglashgan.

2020-yilda har ikkala guruh bo'yicha ham pasayish kuzatilgan, biroq keyingi yillarda, ayniqsa, ayollar safar faolligining tezroq tiklangani e'tiborga molikdir. Ushbu holat turistik talab tarkibida ayollar ishtirokining ortib borayotganini hamda turizm xizmatlarini rejalashtirishda gender omilini hisobga olish muhimligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda to'siqsiz turizmni yanada rivojlantirish hamda aholining turistik xizmatlardan erkin va teng foydalanishini ta'minlash uchun uning rivojlanish omillarini aniqlash va izchil takomillashtirish zarur (2-jadval).

2-jadval. To'siqsiz turizmni rivojlantirish omillari [12]

Rivojlantirish omillari	Mohiyati
Infratuzilmani moslashtirish	Turistik industriya obyektlari, madaniyat muassasalari va madaniy meros obyektlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; turizm sohasi subyektlarini, jumladan, turoperator va turagentlarni, joylashtirish vositalari egalarini hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga hamrohlik qiluvchi fuqarolarni rag'batlantirish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada oshirish [1].
Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish	To'siqsiz muhitni ta'minlashga qaratilgan qonun va standartlarning amaliy ijrosini kuchaytirish, nazorat mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish, shuningdek, to'siqsiz turizmni rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish.
Transport tizimini rivojlantirish	Jamoat va xususiy transport vositalarini maxsus moslamalar bilan jihozlash orqali hududlararo va shahar ichidagi erkin harakatlanishni ta'minlash; temir yo'l transportida, aeroportlar, vokzallar va avtovokzallarda nogironligi bo'lgan hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun panduslar, qulay zina tutqichlari va maxsus aravachalar bilan ta'minlash [1].
Kadrlar salohiyatini oshirish	Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha tayyorlash va ularning malakasini oshirish orqali xizmat sifati hamda mijozlar qoniqishini yanada yuksaltirish [11].
Ilmiy va axborot ta'minotini kuchaytirish	To'siqsiz turizm bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, statistik tahlillar va raqamli axborot resurslarini rivojlantirish asosida asoslangan va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Mazkur jadvalda keltirilgan omillar to'siqsiz turizmni kompleks va tizimli rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ifodalaydi. Infratuzilma, normativ-huquqiy baza, transport tizimi, kadrlar salohiyati hamda ilmiy-axborot ta'minoti o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlangandagina to'siqsiz turizmning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi to'liq ta'minlanadi.

Bundan tashqari, to'siqsiz turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bir qator omillarning uyg'unlashgan ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan: mustahkam qonunchilik bazasi, rivojlangan infratuzilma, malakali kadrlar, zamonaviy texnologiyalar, samarali hamkorlik mexanizmlari va barqaror moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuv hamda barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari yuqori va barqaror natijalarga olib keladi.

O'zbekiston uchun to'siqsiz turizmni rivojlantirish nafaqat nogironligi bo'lgan fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, balki mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mavjud vazifalarga qaramay, yurtimizning boy madaniy merosi, turizm infratuzilmasini izchil modernizatsiya qilish jarayoni hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ushbu yo'nalishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, to'siqsiz turizm nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan yo'nalish, balki turizm sohasining barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv turizm xizmatlaridan foydalanishda teng imkoniyatlarni shakllantirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash hamda aholining turli qatlamlari o'rtasida sayohat faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar O'zbekistonda to'siqsiz turizmni rivojlantirish borasida muayyan ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, infratuzilmani moslashtirish, transport tizimini yanada takomillashtirish, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi. Qonunchilikda belgilangan normalar bilan ularning amaliy ijrosi o'rtasidagi tafovut esa ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Turizm statistikasi va tahliliy ma'lumotlar asosida to'siqsiz muhitni yaratish nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Umuman olganda, to'siqsiz turizmni rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Davlat siyosati, xususi sektor tashabbuslari, ilmiy izlanishlar hamda jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilgan taqdirdagina mazkur sohaning barqaror rivoji ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari kelgusida to'siqsiz turizm sohasida strategik qarorlar qabul qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishda ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 12-01-2024-y., PQ-20-son. — URL: <https://lex.uz/docs/-6759699>
2. Barrier-free tourism for people with disabilities in the Asian and Pacific region. — United Nations, New York, 2003. — ISBN: 92-1-120387-2. — URL: https://www.accessibletourism.org/resources/10_barrierfree_tourism_asia_pacific_en.pdf
3. Bianchi, R. Tourism and the globalisation of fear: Analysing the politics of risk and (in)security in global travel // Tourism and Hospitality Research. — 2006. — Vol. 7, No. 1. — Pp. 64–74. — URL: https://www.researchgate.net/publication/247478389_Tourism_and_the_Globalisation_of_Fear_Analysing_the_Politics_of_Risk_and_inSecurity_in_Global_Travel
4. Logunova, N. A., Dotsenko, J. L. The Role of the State in the Development of Inclusive Tourism // Service in Russia and Abroad. — 2016. — Vol. 10, No. 2 (63). — Pp. 40–53. — URL: <https://naukaru.ru/ru/nauka/article/11911/view>
5. Altinay, F., Altinay, Z., Altinay, M., Dagli, G. Evaluation of the Barrier-Free Tourism and Sustainability of the Barrier-Free Society in Cyprus // European Journal of Sustainable Development. — 2020. — Vol. 9, No. 4. — Pp. 137–146. — ISSN: 2239-5938. — DOI: 10.14207/ejsd.2020.v9n4p137.
6. Rakhimov, Z. O. The importance of the development of the digital economy in the field of tourism in Uzbekistan // Builders of the Future. — 2022. — Vol. 2, No. 02. — Pp. 221–227.
7. Umurzakova, D. E. Theoretical Basis and Socio-Economic Significance of Barrier-Free Tourism Development // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. — 2025. — Vol. 06, Issue 04 (October). — ISSN: 2660-454X. — URL: <https://cajitmf.centralasianstudies.org/index.php/CAJITMF>
8. Yunusova, Ug'iloy. "Turizm sohasining aholi bandlik darajasini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati" // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. — 2025. — 3-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonning beshinchi davriy ma'ruzasi yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish to'g'risida"gi qo'shma qarori. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6848811>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. — URL: <https://siat.stat.uz/reports-filed/798/table-data>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 20-11-2025-y. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8692>
12. Muallif tomonidan tadqiqotlar davomida ishlab chiqilgan materiallar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>